

CHILONJIYDA (ZIZIPHUS JUJUBA) O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI

Xudoyberdiyeva Mashhura Djurayevna
Turg'unboyeva Xosiyatxon O'ktamjon qizi
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti, O'zbekiston
E-mail: xosiyatmirzayeva2@gmail.com

Annotatsiya. *Ziziphus jujuba*, keng tarqalgan nomi bilan unabi yoki chilonjiyda, asosan Markaziy Osiyo va O'rta Sharqda o'sadigan mevali daraxtdir. Chilonjiyda mevasi dastlab bundan 4 ming yil oldin Xitoyda o'stirilgan. Undan keyin Hindiston, Afg'oniston, Pokiston, Janubiy Koreya, Rossiya kabi davlatlarda ham uni madaniylashgan holda yetishtirishni boshlashgan. O'zbekistonda chilonjiyda o'tgan asrdan boshlab ekilgani ma'lum. Ushbu o'simlikning mevalari, barglari va boshqa qismi an'anaviy tibbiyotda uzoq vaqt davomida ishlatilgan va ko'plab dorivorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Maqolamizda *Ziziphus jujuba* o'simligining dorivorlik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: *Ziziphus jujuba*, morfologik xususiyatlari, geografiyasi, dorivor xususiyatlari, farmakologik xususiyatlari, flavonoidlar, alkaloidlar, vitaminlar.

Abstract. *Ziziphus jujuba*, commonly known as unabi or chilonjiyda, is a fruit tree that grows mainly in Central Asia and the Middle East. The fruit of chilonjiyda was first cultivated in China 4 thousand years ago. After that, it was also cultivated in countries such as India, Afghanistan, Pakistan, South Korea, and Russia. It is known that chilonjiyda has been cultivated in Uzbekistan since the last century. The fruits, leaves, and other parts of this plant have been used in traditional medicine for a long time and are distinguished by many medicinal properties. In our article, we will consider the medicinal properties of the *Ziziphus jujuba* plant.

Keywords: *Ziziphus jujuba*, morphological features, geography, medicinal properties, pharmacological properties, flavonoids, alkaloids, vitamins.

Chilonjiyda (*Ziziphus jujuba*) – jumrutmashlar oilasi, zizifus turkumiga mansub daraxt yoki buta hisoblanadi. Bizda o'sadigan chilonjiydalarning bo'yi 3 metr gacha yetadi, tanasining yo'g'onligi esa 60 sm. Shoxlari qizg'ish-jigarrang, yosh novdalari tukdor bo'ladi. Barglari to'q yashil, terisimon, tuxumsimon, kalta bandli bo'ladi. Gullari mayda, ikki jinsli, ko'rimsiz, lekin juda xushbo'y, ko'kish tusda bo'ladi. *Ziziphus jujuba* mevalari, odatda, qizil yoki sariq rangda bo'lib, shirin va mazali ta'mga ega. Mevasi tarkibida 20-30% qand, 2,93% oqsil, 3,7% moy, 0,2-2,5%, kislota bor. Shuningdek C, P, B va A vitaminlari uchraydi. Uning bir to'pidan 50-60 kg gacha hosil olish mumkin. Chilonjiyda O'zbekistonning barcha viloyatlarida ekib o'stiriladi. Ayniqsa Samarqand viloyatida keng tarqalgan. Mevasi, guli va bargi foydali. Chilonjiydani o'ta bardoshli o'simliklar sirasiga kiritish mumkin. U qurg'oqchilikka, issiqqa (+44 daraja) va sovuqqa (-30 daraja) chidamli bo'lib, o'sish uchun joy tanlamaydi. Chilonjiyda har yili hosil beradi. Uning mevalari tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan ko'plab makro va mikroelementlar mavjud.

Chilonjiyda mevasining dorivor xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Antioksidantlik: chilonjiyda mevalari antioksidantlarga, xususan flavonoidlar va vitamin C ga boy. Bu moddalar organizmda erkin radikallarning zararli ta'sirini kamaytirishga yordam beradi.

- Immunitetni kuchaytirish: Mevalar immunitet tizimini mustahkamlashga yordam beruvchi moddalarni o'z ichiga oladi, bu esa organizmni kasalliklardan himoya qiladi.

- Yurak salomatligi: chilonjiyda mevasida kaliy miqdorining yuqoriligi yurak sog'lig'ini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi va qon bosimini tartibga soladi.

Ziziphus jujuba barglari ham dorivor xususiyatlarga ega:

- Tinchlantiruvchi ta'sir: an'anaviy tibbiyotda jujuba barglari asab tizimini tinchlantirish uchun ishlatiladi. Ular uyqusizlik va stressni kamaytirishga yordam beradi.

- Yallig'lanishga qarshi: chilonjiyda barglari yallig'lanish jarayonlarini kamaytirishga yordam beruvchi moddalarni o'z ichiga oladi

An'anaviy tibbiyotdagi qo'llanilishi

Ziziphus jujuba an'anaviy tibbiyotda keng qo'llaniladi. Chilonjiyda o'simligi buyrak, qovuq kasalliklarida, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi, revmatizm, isitmada, ichak kasalliklarida qadimdan ishlatib kelinadi. Ildizining po'stlog'idan esa odamni tetiklashtirib, ko'nglini ochadigan dori tayyorlanadi. Ibn Sino chilonjiyda mevasidan ko'krak og'rig'i, o'pka, buyrak va siydik pufagi kasalliklarini davolashda foydalangan bo'lsa, Markaziy Osiyodagi tabiblar mevasidan tayyorlangan damlamani yo'tal, astma, chechak, kamqonlik, ich ketishni qoldirish, og'riq bosuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi sifatida tavsiya qilganlar. Ansoriy aytadiki, uni har doim ovqatlanish oldidan yegan ma'qul, chunki u kam to'yimli, sekinlik bilan hazm bo'ladi. Barglarini quritib, maydalab, sirka bilan aralashtirib xavfli yaraga qo'yilsa, shifo bo'ladi.

Zamonaviy tibbiyotda qo'llanilishi.

Zamonaviy tadqiqotlar unabi o'simligining antidiabetik ta'sirini tasdiqlagan. Bir necha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, unabi ekstrakti qondagi glukoza darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Xulosa: So'nggi yillarda nafaqat vatanimizda balki butun dunyoda dorivor o'simliklarga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda, turli kasalliklarni davolash, insonlarning immun tizimini mustahkamlashda tabiiy vositalar afzal ko'rilmogda. Ziziphus jujuba o'simligi ko'plab dorivorlik xususiyatlariga ega bo'lib, an'anaviy va zamonaviy tibbiyotda keng qo'llaniladi. Uning mevalari, barglari, ildizi, po'stlog'i va urug'lari turli kasalliklarni davolashda foydalanib kelinmogda. Bu o'simlikdan sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashda va turli kasalliklarni oldini olishda faol tarzda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ataboyeva X.N., Xudayqulov J.B., O'simlikshunoslik. Toshkent 2018.
2. Xolisbekov J.K. Abduxomidov I.M. To'ychiyev M.M "Dorivor chilonjiydaning o'ziga xos shifobaxshlik xususiyatlarining xalq tabobatidagi ta'siri va qo'llanilishi"
3. Xolmatov H.X, Ahmedov O'.A. Farmakognoziya. Toshkent 1995
4. Professor Ibrohimjon Asqarov "Tabobat qomusi" Toshkent 2019